



**SHAXMAT SPORT TURI ORQALI BOSHLANG'ICH SINF
O'QUVCHILARI AQLIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING
AHAMIYATI**

Jo'rayev Jo'rabek O'ktamovich

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti, magistr

Annotatsiya. Ushbu ishda shaxmat o'yinini o'rganish jarayonida boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning intellektual rivojlanishiga hissa qo'shadigan olimlar o'rganildi va ular asosida eksperimental rivojlanish texnologiyasi ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar. shaxmat o'yin, idroki, tafakkuri, xotirasi, mantiqiy, diqqat, qobiliyat, xarakter, sog'lik, ruhiy va aqliy tayyorgarlik.

So'nggi yillar mobaynida mamlakatimizda yoshlarimizning jismoniy tarbiya va ommaviy sport turlari bilan muntazam shug'ullanib borishlari uchun ularning qiziqish va intilishlarini inobatga olgan holda keng ko'lamli sharoitlar, imkoniyatlar yaratildi. Mamlakatimizda shaxmatni aholi o'rtaida keng targ'ib qilish va uni ommaviy sport turiga aylantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual va madaniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, yuqori iqtidorga ega bo'lgan yoshlarni tanlash, saralab olish va ularni professional shaxmatchilar va xalqaro grossmeysterlar sifatida tayyorlash tizimini yo'lda qo'yish, trenerlar uchun munosib mehnat sharoitini yaratish, shuningdek, O'zbekiston shaxmat maktabini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi va boshqa mamlakatlar tashabbusi bilan 2019-yil 2-dekabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining shaxmatni rivojlantirish bo'yicha maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi va ushbu rezolyutsiyaga muvofiq 20-iyul Butunjahon shaxmat kuni etib e'lon qilindi.

Yosh avlodning intellektual qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan turli xil mavzular orasida, bizning fikrimizcha, shaxmat o'yinini o'rganish alohida o'ren tutishi kerak. Dunyoning ayrim mamlakatlarida, shu jumladan Rossiyada maktab kurslarida shaxmat bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi va ushbu o'yinning yuqori salohiyatini ishtirokchilarning intellektual va shaxsiy rivojlanishi vositasi sifatida tan oladi. Shaxmat o'yini xarakterining universal intizomi sifatida umumiyladaniyatni, ayniqsa mantiqiy va ijodiy fikrlashni tarbiyalash e'tirof etiladi (S. D. Neverkovich). Bugungi kunga kelib, turli



malakali shaxmatchilarning (V. A. Alatsev, B. M. Blumenfeld, I. N. Dyakov, A. Kotov, N. V. Krogius, E. N. Kuchumova, V. B. Malkin, T. Y. Paramonov, O. K. Tixomirov va boshqalar) fikrlashini aks ettiruvchi ko'plab tadqiqotlar o'tkazildi. Shu bilan birga, shaxmatni o'rganish va mакtabda shaxmat o'yinini o'rgatish uchun maxsus texnologiyalarni yaratish jarayonida maqsadli intellektual rivojlanishning aspekti hali ham e'tiborga olinmagan.

Muntazam ravishda sport turlari bilan shug'ullanib borish, shug'ullanish jarayonida e'tiborli bo'lish yuzasidan kerakli ma'lumotlarni o'rgatish, o'quvchi yoshlarda sport bo'yicha mukammal bilimlar olishi uchun sharoit yaratish, darsdan keyin bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishga sarflash va foydali tashkil qilishni o'rgatish, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanaladi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-avgustdagagi PQ-3906-sonli qaroriga O'zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida Yuqori malakali murabbiy kadrlarni jalb qilgan holda iqtidorli yosh shaxmatchilarni tayyorlash, shaxmat bo'yicha milliy terma jamoaning amaldagi a'zolari bilan doimiy aloqani ta'minlash, shuningdek, shaxmatni insonning aql va tafakkur jarayonini rivojlantiruvchi sport turi sifatida yanada ommalashtirish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda O'zbekiston shaxmat federatsiyasining: majburiy maktab dasturlari doirasida ilovaga muvofiq 150 ta umumiyo'rta ta'lim maktablarining o'quvchilarini tajriba tariqasida shaxmatga o'qitishni tashkil qilish; Shaxmat bo'yicha Respublika ixtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktabini O'zbekiston shaxmat federatsiyasi tasarrufiga berish; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi PQ-4954-son qaroriga shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

Mamlakatimizda shaxmatni aholi o'rtaida keng targ'ib qilish va uni ommaviy sport turiga aylantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual va madaniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, yuqori iqtidorga ega bo'lgan yoshlarni tanlash, saralab olish va ularni professional shaxmatchilar va xalqaro grossmeystyerlar sifatida tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, trenyerlar uchun munosib mehnat sharoitini yaratish, shuningdek,



O'zbekiston shaxmat maktabini yaratish maqsadida: "Maktabda shaxmat" loyihasini amalga oshirish, uning doirasida umumiy o'rta ta'lif maktablarida boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun shaxmatga o'qitish tizimini yanada rivojlantirish orqali qamrovni yilmayil oshirib borish, o'quvchilar va maktablar o'rtasida turnirlar o'tkazish; bolalar va o'smirlarning shaxmat bilan shug'ullanishga qiziqishini oshirish, uni mmaviylashtirish, bu borada ta'lif muassasalari, mahalla va tashkilotlarda shaxmat bo'yicha musobaqalarni muntazam ravishda tashkil etish;

yuqori iqtidorga ega bo'lgan yosh shaxmatchilarni tanlash va saralab olish (seleksiya) tizimini tubdan takomillashtirish, ularni bosqichma-bosqich tayyorgarlikdan o'tkazib borish orqali professional shaxmatchilar va xalqaro grossmeyster bo,,lib yetishishini ta'minlash, shuningdek, imkoniyati cheklangan shaxmatchilarni qo'llab-quvvatlash;

shaxmat infratuzilmasini yanada rivojlantirish hamda xalqaro talablarga moslashtirish, bolalar-o'smirlar shaxmat maktablarini, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil qilish;

shaxmat sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga ilg'or ilmiy-metodik hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish;

shaxmat bo'yicha respublika hamda xalqaro musobaqalar va olimpiadalar g'oliblari, xalqaro grossmeyster, xalqaro toifadagi sport ustasi, xalqaro unvonlarga ega bo,,lgan trenerlar va hakamlar unvonlarini qo'lga kiritgan shaxmatchilarni pul mukofotlari bilan taqdirlash;

Shaxmat insoniyat kashf etgan eng qadimiyligi, qiziqarli, jozibali hamda go'zal o'yinlardan biridir. Uning asosiy xususiyati shuki, shaxmatda sport va san'at uyg'unlashib ketgan. Shaxmat qiziqarli va maroqli o'yin. U bilan shug'ullanish organizmning umumiy jismoniy rivojlanishiga, fikrlash doirasining o'sishiga, o'sib kelayotgan yosh avlod ruhiyatiga ijobjiy ta'sir etadi. Bola yoshligidan shaxmatda yuzaga keladigan variantlarni hisoblay boshlaydi. Ularni solishtiradi, yaxshisini tanlaydi, vaziyatga baho beradi, har doim band bo'ladi. Uning bo'sh vaqtini miya uchun kerakli va foydali mashg'ulot bilan to'ldiriladi. Agar bola shaxmatdagi kombinatsiyalarni topa olar ekan, shaxmat darsidagi qiyin masala



yechimini albatta topishga harakat qiladi. Shaxmatning yana bir o'ziga xos xususiyati bor. U o'zida sport, fan va san'atni mujassamlashtirgan. Shaxmat nazariyasini mutolaa qilish jarayonida uning yangi qirralarini kashf etish mumkin. Xar qanday yaxshi shaxmatchi esa chiroyli yurishlar-u ajoyib o'yinlardan xuddi musiqa tinglagani, qiziqarli himoya o'qigani kabi zavqlanadi, o'zi ham shunday «san'at asarlari»ni yaratishga intiladi. Barchamizga ayonki, tarbiya oiladan boshlanadi. Tarbiya ongni, xulq-tvorni, shaxsni har tomonlama rivojlantirishni aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayondandir. “Chunki oilada beriladigan bu tarbiya jarayonida faqat bilimlar o'zlashtirilib, malaka va ko'nikmalar hosil qilinmaydi, o'zbek oilasining axloqiy e'tiqodi, his-tuyg'usi, axloqiy, irodaviy va jismoniy sifatlari, xarakter xususiyatlari tarkib toptiriladi. Shaxmat o'yini sporti milliy qadiriyat ekanligini avvalombor, oilada xis qilib, uni mahallalarda foydalanish bilan umuminsoniy qadriyatga aylantirishga barchamiz mas'ul ekanligimizni va bu orqali o'zbek yoshlarni dunyoga tanitish imkoniyatlari mavjudligini anglashimiz lozim. Shaxmat — umumiyligi va intellektual qobiliyatlarni rivojlantiruvchi ta'limning bir turi hisoblanib , psixologik jarayonlarini rivojlantiruvchi, insonni aqliy, ijodiy va tarbiyaviy komolotga erishishiga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. Shaxmat o'quvchi qizlarni yanada ma'nani etu qilik qilib tarbiyalashda qo'shimcha tarbiya vosita bo'lib xizmat qiladi. Shaxmat sport o'yinigina bo'lib qolmay, balki inson xarakteri va shaxsining shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida, insonlarni tafakkur qilishga, mantiqiy fikrlashga, mas'uliyatli bo'lishga o'rgatadi. Shaxmatning inson hayotidagi ahamiyati to'g'risida ko'agina ilmiy tadqiqotlar (M.Muhiddinov, R.Evqaev, A.Toshxo'jaev) olib borilgan. Shuningdek, buyuk tarixiy shaxslar (Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va b.) o'z faoliyatlarida shaxmat (shatranj) o'yinlaridan foydalanganliklari, uning ijobjiy ahamiyati haqida tarixiy manbalar guvohlik beradi.

Xulosa o'mnida aytish mumkinki, shaxmat o'yini boshlang'ich sinf o'quvchilarning aqlini o'stirish barobarida, mustaqil, har tomonlama to'g'ri, mantiqiy fikrlashga o'rgatishda ulkan imkoniyalarga ega deb hisoblaymiz. Shaxmat boshlang'ich sinf o'quvchilarni axloqiy, ruhiy, ma'naviy jihatdan sog'ligini ta'minlaydi. Shaxmat o'quvchi-yoshlarning fanlarni a'lo darajada o'zlashtirishga yo'l ochib beradi. Shaxmat o'ynash qabiliyati shakllangan bola hech qachon yomon yo'lga kirmaydi, shundan



komillikka

intilib

yashashga

o'rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-avgustdag'i «O'zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3906 sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi «Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ -4954 sonli qarori.
3. Blonskiy P. P. Xotira va tafakkur / P. P. Blonskiy. –SPb .: Piter, 2001.– 288 b.
4. Nosir Muhammad «Shaxmat mo'jizasi» T 2014-y [5–9 bet].
5. Xaylayev, Mamatqul "SHaxmat alifbosi". Uslubiy qo'llanma «Tafakkur», 2015. [12 b.]
6. Yaqubova D.B. Shaxmatning boshlang'ich asoslari (o'quv-metodik qo'llanma). Urganch – 2021.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi «shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ -4954 sonli qarori.
8. Tolibjonovich, M. T. (2021). Eastern Renaissance And Its Cultural Heritage: The View Of Foreign Researchers. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.